

MAKTAB O'QUVCHILARI UCHUN MUSIQA FANINI O'QITISHDA INTERAKTIV USULLARDAN  
FOYDALANISHNING NATIJAVA YILIGI

Soliyeva Dilorom Alisher qizi

Toshkent viloyati Chinoz tumani

18-sonli umumta'l'm maktabi

Musiqa fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Musiqa hayotimiz mazmuni, dillardagi sevgi muxabbatni tarannum etuvchi beqiyos go'zallik kalitidir. Musiqiy ta'l'm va tarbiya usullarini takomillashtirib borilishi esa fanni o'qitilishining yuksakroq darajasini hamda asosini puxtarot egallab olishni ta'minlashga yordam beradi. Ikkinchisi tomondan qaraganda o'qitish usullarining takomillashgan, yangi variantlarini dars jarayonida qo'llash o'qitiladigan mavzuning qiziqarli va mazmundor bo'lishiga olib keladi. Ushbu maqolada maktab musiqa darslarida bolalarda musiqiy bilimlarni shaklantirishning uziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek musiqa darslari jarayonda musiqiy bilimlar o'zviyligini ta'minlash jarayonda ijodiy faollikni yanda oshirishga doir ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** interaktiv usullar, innovatsion pedagogik texnologiya, a'nnaviy o'qitish usullar, maktab yoshi, o'smirlik va ijtimoiy yetuklik davri, ohang, usul, musiqiy ifoda vositalari, yakka ovozlilik, musiqiy idrok.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ  
МУЗЫКЕ ШКОЛЬНИКОВ

Солиева - дочь Дилором Алишер

Чинозский район, Ташкентская область

Средняя общеобразовательная школа №18

Учитель музыки

**Аннотация:** Музыка – это смысл нашей жизни, ключ к несравненной красоте, воспевающей любовь в сердцах. Совершенствование методов музыкального образования и воспитания поможет обеспечить более высокий уровень и лучшее понимание основ преподавания естественных наук. С другой стороны, использование усовершенствованных, новых методов обучения на уроках делает предмет интересным и содержательным. В данной статье представлена информация об особенностях формирования музыкальных знаний у детей на школьных уроках музыки. Также имеется информация о том, как повысить творческую активность в процессе обеспечения идентичности музыкальных знаний в процессе занятий музыкой.

**Ключевые слова:** интерактивные методы, инновационные педагогические технологии, традиционные методы обучения, школьный возраст, подростковый возраст и социальная зрелость, Мелодия, метод, средства музыкальной выразительности, сольный голос, вокал, музыкальное восприятие

**EFFECTIVENESS OF USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING MUSIC TO  
SCHOOLCHILDREN**

**Soliyeva is the daughter of Dilorom Alisher**

*Chinoz district, Tashkent region*

*Secondary school No. 18 Music teacher*

**Annotation:** *Music is the meaning of our lives, the key to the incomparable beauty that sings of love in the hearts. Improving the methods of music education and upbringing will help to ensure a higher level and a better understanding of the basics of science teaching. On the other hand, the use of improved, new teaching methods in the classroom makes the subject interesting and meaningful. This article provides information about the features of the formation of musical knowledge in children at school music lessons. There is also information on how to increase creative activity in the process of ensuring the identity of musical knowledge in the process of music lessons.*

**Keywords:** *interactive methods, innovative pedagogical technology, traditional teaching methods, school age, adolescence and social maturity, Melody, method, means of musical expression, solo voice, vocals, musical perception.*

O'zbekiston Respublikasi o'zining ma'naviy yangilanish yo'ida ijodning barcha turlari rivojlanishiga sharoit yaratib berishga, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, millatidan va irqidan qat'i nazar yoshlarning ijodi va qobiliyatlarini o'stirish ishiga katta ehtibor berish, bo'gungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Bu esa umumta'lif maktablarida o'quv-tarbiyavaiy ishlarning yanada takomillashtirishni, ta'lif va tarbiyani mushtarakligiga erishishni taqozo etadi. Musiqa madaniyati darslarida maktab yoshidagi o'quvchilarni ijodiy faoliyatini oshirish tamoyillarini ishlab chiqish va amalga oshirish ta'lifning ustivor vazifalaridan biridir. Bu esa musiqiy-ijodiy faoliik orqali o'quvchi – yoshlarning musiqiy-madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'gan holda, bir qator holatlar orqali belgilanadi.[8]

Musiqiy o'quv tovushning baland va pastligi, ohanglar, usullar, musiqiy ifoda vositalari, yakka ovozlilik, jo'rovozlilik, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy layoqat, tinglash va kuylash qobiliyati shular jumlasidandir. Maqolaning amaliy ishini tashkil qilish yuzasidan o'tkazgan tajriba–tadqiqot–ishimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy ijodiy layoqat tizimini ishlab chiqishga harakat qildik va uning asosiy ko'rsatgichlarini quyidagilar deb belgiladik:

- musiqaga va musiqiy faoliyatga qiziqtirish;
- musiqiy va musiqiy faoliyat jarayonida musiqiy ijodning namoyon bo'ishi;
- musiqiy asarlarni taqqoslash orqali fikrlar xilma- xillagini farqlash, baholash, xulosa chiqarish;
- o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga intilish, ijrochilik va musiqiy ijodini faolligini oshirish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga joriy etish asosida o'qitish samaradorligini oshirish davr talabi sifatida barcha pedagog o'qituvchilar qatorida musiqa o'qituvchisining ham zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Har qanday fanni, shu jumladan musiqa madaniyati darslarini o'qitish jarayonida ham faollashtirilgan, o'quvchilarni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fikrlovchi, mushohada qiluvchi, o'z fikrlarini bildira oluvchi shaxs sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi-bu o'qituvchidir. O'qituvchi o'zi va o'quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo'lgan o'qitish usullari, yo'llari, shakllari, vositalari bilan birgalikda ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida o'quv jarayonisamaradorligini oshirishga harakat qiladi.[6,7]

Shu boisdan ham innovatsion pedagogik texnologiya, ta'lif texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Interaktiv usullar orqali o'qitish va muloqotli ta'lif berish, standart o'qitishning resursi bo'lib hisoblanadi. Kichik guruhlarda o'qitish va ishlash usulini qo'llash natijasida o'qitish jarayonini jaddallashtirish mumkin, ya'ni rivojlanish potensialini yuqori darajaga ko'tarish, mashg'ulot mazmunini chuqur va keng miqyosida o'zlashtirishga sharoit yaratadi. Faol o'qitish usullardan hammasi xam interaktiv usullariga kirmaydi. Interaktiv o'qitish usullari deganimizda, avvalo, o'quvchilar orasida mavzuni o'rganish va o'zlashtirish usuli o'zaro muloqot va o'qitish jarayonini psixologik mexanizm nuqtasidan kuchaytiradiganlarni tushunish zarur.[1,3]

Maktablardada interaktiv rejimida o'qitish jarayonini qo'llash asosiy masalalari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- musiqa fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarlarning qiziqishini ko'tarish;
- o'qitish jarayonini o'qituvchi faoliyati hayot real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- samarali kommunikatsiya usullari, ya'ni o'qituvchi-o'quvchi va o'zaro, muloqot ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish;
- yangi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini yangi darajaga ko'tarish;
- ta'lif olish jarayoniga o'quvchilarlarning ma'suliyatini oshirish.

Interaktiv usullarni qo'llashda o'quvchi sinfda dars jarayonini o'zlashtirish asosiy a'zosi bo'ladi va uning fundamental bilimi o'qitish o'chog'ining asosi bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi o'z navbatida o'quvchilarga yangi, tayyor bilim bermaydi, aksariyat o'quvchilar orasida

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

## VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)

mustaqil ravishda izlanish va fikrlash jarayonini rivojlantirish orqali o'zlashtirishni oshiradi.[2]

A'nana viy o'qitish usullardan interaktiv usullarning farqi – o'qituvchi va o'quvchi orasidagi to'qnashish jarayonini o'zgartiradi: o'quvchi faolligi o'qituvchining faolligidan ustunlashadi, o'z navbatida o'qituvchining asosiy maqsadi bo'lib, o'quvchilarning initiativ fikrlash jarayoniga yuqori darajali sharoit yaratib berish bo'ladi. O'qituvchi asosan dars jarayonini tashkillashtirish umumiylar masalalari, oldindan tayyorlangan kerak bo'lgan topshiriqlarni tayyorlash, o'quvchilar orasida muloqot uchun savol va mavzularni shakllantirish, konsultatsiya berish, vaqt

meyyorini va reja boskichlarini amalga oshirish jarayonini nazorat kiladi.

Interaktiv usullar:

- o'quvchilarda qiziqishni oshiradi;
- bir vaqt ni o'zida gurux barcha o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiladi;
- xar bir o'qish materiallarini qo'llash natijasini oshiradi;
- o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini faol o'zlashtirish samaradorligini oshiradi;
- qaytarma bog'liqligini ta'minlaydi;
- o'quvchilar orasida mustaqil fikr va bilimiga nisbatini shakllantiradi va oshiradi;
- amaliy ko'nikmalarni jadallashtiradi;
- shaxslararo muloqot ko'nikmalarini yaxshilaydi;
- xulq-atvorini o'zgarishiga olib keladi.

"Interfaol usullar" Interfaol usuli hamkorlikda faoliyat olib borish ma'nosini anglatadi.

"Doira" usuli

"Akvarium" usuli

"Muzyorar" usuli

"Mozaika"

"Tarmoqlar" (Klaster)

"Suratli diktant"

"Zanjir"

"Enerjayzerlar"

Ularni dars mashg'ulotlari jarayonlarida qo'llashni sizga tavsiya etamiz[4]

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshkent, 2010 – yil. Nurmatov H, Norxo'jaev N. Musiqa alifbosi. 1 – sinf uchun darslik.
2. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashryot – matbaa ijodiy uyi. 2011 – yil.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)**

---

3. Nurmatov H, Norxo'jaev N. Musiqa. 2 – sinf uchun darslik. G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2010 – yil.
4. Boltayev B. Maktabgacha ta'lif muassasalarida musiqa tarbiyasi.- "SamDU" nashriyoti. (o'quv qo'llanma) -2019 y. [1, 3-18 b]
5. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi.- T.; 2009 y. [2,48 b]
6. Yusupova N. Musiqa savodi metodikasi va ritmika.- T.; 2010y."Musiqa" nashriyoti. [3,16 b]
7. Yusupova N. Musiqa savodi metodikasi va ritmika.- T.; 2010y."Musiqa" nashriyoti. [4,33- b]
- 8.Nurmatov H, Norxo'jaev N. Musiqa. 3 – sinf uchun darslik. G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2008 – yil.